




# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **12819,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **1,1 %** ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **2280,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 186,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **10538,4** mlrd. so'mni (**8,1 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **488,9** mlrd. so'mni (**53,1 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

Toshkent viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **12819,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **1,1 %** ni tashkil etdi.



### ENG YUQORI ULUSH

Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Zangiota tumani **11,3%** ulush bilan **1451,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

### ENG QUYI ULUSH

Toshkent viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Ohangaron tumani **1,4%** ulush bilan **184,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida ko'plab tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **82,2 %** va yirik korxonalar hissasiga **17,8 %** to'g'ri keldi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **10538,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **8,1 %** ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **82,2 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Parkent (98,5 %), Quyi Chirchiq (98,3 %), Oqqo'rg'on (98,0 %) va Bo'ka (98,0%) tumanlari hamda Yangiyo'l (97,2 %) shahrida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Angren shahri (194,7%), Nurafshon shahri (154,4 %) va Bo'stonliq tumanlarida (115,8 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>12819</b>	<b>101,1</b>	<b>2280,6</b>	<b>186,8</b>	<b>10538,4</b>	<b>91,9</b>
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	1044,9	154,4	393,1	462 m.	651,8	96,5
Olmaliq	1021,3	96,3	167,8	110,9	853,5	93,9
Angren	1192,9	194,7	673,6	15,8 m.	519,3	91,1
Bekobod	697,9	94,9	173,7	107,2	524,2	91,4
Ohangaron	230,2	100,7	66,4	159,0	163,8	87,6
Chirchiq	582,9	94,9	69,4	86,3	513,5	96,2
Yangiyo'l	673,4	82,9	19,1	89,4	654,3	82,7
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	453,8	87,8	8,2	112,7	445,6	87,5
Ohangaron	184,8	101,7	14,0	188,5	170,8	98
Bekobod	255,1	88,3	9,0	35,3	246,1	93,4
Bo'stonliq	676,4	115,8	196,1	5,9 m.	480,3	87,1
Bo'ka	360,2	76,6	7,4	45,1	352,8	77,8
Quy Chirchiq	196,5	91,9	3,4	98,7	193,1	91,8
Zangiota	1451,6	95,2	57,2	74,9	1394,4	96,3
Yuqori Chirchiq	413,4	88,5	11,4	20,7	402,0	97,5
Qibray	814,5	89,4	75,5	74,7	739,0	91,2
Parkent	430,2	90,0	6,4	31,4	423,8	92,6
Piskent	255,9	85,7	8,3	74,5	247,6	86,2
O'rta Chirchiq	225,2	99,2	35,6	102,9	189,6	98,5
Chinoz	498,2	89,9	148,1	83,7	350,1	92,8
Yangiyo'l	519,8	95,4	19,2	79,1	500,6	96,2
Toshkent	639,9	93,7	117,9	92,1	522,0	94,1

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **86,8%** ga o'sdi va **2280,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **17,8%** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **10538,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **8,1 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,2 %** ni tashkil etdi.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
TUMAN VA SHAHARLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Parkent (98,5 %), Quyi Chirchiq (98,3 %), Bo'ka (98,0%) va Oqqorg'on (98,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Angren shahri (56,5 %), Nurafshon shahri (37,6 %) va Chinoz tumanida (29,7 %) kuzatildi.



**TOSHKENT VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON  
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4342,8** ming so'm (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **0,4%** ga kamaydi)

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Nurafshon (21412,9 ming so'm) Yangiyo'l (11094,4 ming so'm), va Olmaliq (7760,6 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Toshkent viloyati	4 342,8	99,6
<i>Shaharlar:</i>		
Nurafshon	21 412,9	152,9
Olmaliq	7 760,6	94,9
Angren	6 308,2	191,9
Bekobod	7 262,7	93,4
Ohangaron	6 073,1	98,3
Chirchiq	3 696,3	94,0
Yangiyo'l	11 094,4	81,5
<i>Tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	4 314,1	86,6
Ohangaron	1 924,7	100,2
Bekobod	1 615,3	86,9
Bo'stonliq	3 992,7	114,5
Bo'ka	2 859,2	75,5
Quy Chirchiq	1 815,8	90,6
Zangiota	7 331,4	93,9
Yuqori Chirchiq	3 042,1	87,0
Qibray	4 052,2	88,2
Parkent	2 768,2	88,4
Piskent	2 530,9	84,5
O'rta Chirchiq	1 501,6	97,4
Chinoz	3 715,0	88,5
Yangiyo'l	2 468,1	94,0
Toshkent	3 533,6	92,1

**Asosiy tarkib, foizda**




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**



Tohkent viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **488,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **53,1** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **260,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **57,5** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **228,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **38,7** %) tashkil etdi.



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **260,7** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **228,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>488,9</b>	<b>46,9</b>	<b>260,7</b>	<b>57,5</b>	<b>228,2</b>	<b>38,7</b>
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	4,0	36,5	4,0	36,5	-	-
Olmaliq	17,9	92,9	5,9	70,5	12,0	110,1
Angren	28,4	58,0	28,4	58,0	-	-
Bekobod	38,5	51,7	38,5	51,7	-	-
Ohangaron	13,6	53,5	13,6	53,5	-	-
Chirchiq	9,0	59,8	9,0	59,8	-	-
Yangiyo'l	129,9	55,3	73,4	73,7	56,6	41,8
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	23,4	38,7	8,5	62,5	14,8	31,8
Ohangaron	-	-	-	-	-	-
Bekobod	4,7	44,3	-	-	4,7	44,3
Bo'stonliq	19,5	32,1	5,3	65,9	14,2	26,9
Bo'ka	39,7	32,2	23,3	33,6	16,4	30,4
Quyi Chirchiq	9,9	47,4	2,9	63,0	7,0	43,0
Zangiota	22,5	33,5	0,2	24,3	22,2	33,6
Yuqori Chirchiq	6,0	67,3	6,0	67,3	-	-
Qibray	34,4	38,7	-	-	34,4	38,7
Parkent	25,8	60,5	14,6	72,9	11,2	49,4
Piskent	27,5	47,7	11,5	65,5	16,1	40,0
O'rta Chirchiq	-	-	-	-	-	-
Chinoz	16,5	49,7	8,6	54,9	7,9	45,1
Yangiyo'l	-	-	-	-	-	-
<b>Toshkent</b>	<b>17,6</b>	<b>45,0</b>	<b>6,9</b>	<b>58,0</b>	<b>10,7</b>	<b>39,4</b>



**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
DEHQON BOZORLARI**



2,9  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



122,5  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



6,2  
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

25,4  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



8,6  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

4,9  
mlrd. so'm



**Tuxum**

47,9  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari** (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

0,9  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar**

3,7  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari** (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

32,7  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

5,1  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

2020-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha tuman va shaharlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **260,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**122,5** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.




2020-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha tuman va shaharlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **228,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 167,0 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 40,7 mlrd. so'mni, otlar 20,1 mlrd. so'mni, parrandalar 0,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2020-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,2 %** ni tashkil etib, **281,8 mlrd. so'mga** yetdi va 2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **21,3 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **78,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>281,8</b>	<b>78,7</b>	<b>55,5</b>	<b>84,1</b>	<b>226,3</b>	<b>77,5</b>
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	5,6	77,5			5,6	77,2
Olmalik	66,5	104,1	43,1	126,6	23,4	78,6
Angren	20,7	75,0			20,7	77,5
Bekobod	7,9	77,5			7,9	78,2
Ohangaron	17	49,0	7,8	34,0	9,2	78,3
Chirchiq	29,3	79,6	3,8	83,0	25,5	79,2
Yangiyo'l	13,4	79,1			13,4	79,2
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	2,6	73,6			2,6	74,0
Ohangaron	3	73,7			3	73,8
Bekobod	3,1	74,2			3,1	74,3
Bo'stonliq	11,3	75,4	0,3	41,2	11	77,0
Bo'ka	5,3	65,4	0,5	30,1	4,8	75,3
Quyichirchiq	2,9	74,2			2,9	75,4
Zangiota	17,6	78,5			17,6	78,2
Yuqori Chirchiq	11,9	77,5			11,9	77,4
Qibray	20,9	76,2			20,9	78,6
Parkent	7,8	72,0		1,9	7,8	74,7
Piskent	3,7	73,7			3,7	74,8
O'rta Chirchiq	5,2	75,1			5,2	75,1
Chinoz	4,4	74,5			4,4	74,2
Yangiyo'l	8,7	77,1			8,7	76,9
Toshkent	13,2	78,4			13,2	78,5

## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019-yil  
yanvar-avgustl

2020-yil  
yanvar-avgust



2019-yil yanvar-avgust oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 21,3% ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **281,8** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 78,7 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **281,5** mlrd. so'm nodavlat mulkka hamda **0,3** mlrd. so'm davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>281,8</b>	<b>100</b>	<b>281,5</b>	<b>98,8</b>	<b>0,3</b>	<b>1,2</b>
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	5,6	2,0	5,6	2,0		
Olmaliq	66,5	23,6	66,5	23,6		
Angren	20,7	7,3	20,7	7,3		
Bekobod	7,9	2,8	7,9	2,8		
Ohangaron	17	6,0	17	6,0		
Chirchiq	29,3	10,4	29,0	10,3	0,3	1,2
Yangiyo'l	13,4	4,8	13,4	4,8		
<i>Tumanlar:</i>				0,0		
Oqqo'rg'on	2,6	0,9	2,6	0,9		
Ohangaron	3	1,1	3	1,1		
Bekobod	3,1	1,1	3,1	1,1		
Bo'stonliq	11,3	4,0	11,3	4,0		
Bo'ka	5,3	1,9	5,3	1,9		
Quy Chirchiq	2,9	1,0	2,9	1,0		
Zangiota	17,6	6,3	17,6	6,3		
Yuqori Chirchiq	11,9	4,2	11,9	4,2		
Qibray	20,9	7,4	20,9	7,4		
Parkent	7,8	2,8	7,8	2,8		
Piskent	3,7	1,3	3,7	1,3		
O'rta Chirchiq	5,2	1,9	5,2	1,9		
Chinoz	4,4	1,6	4,4	1,6		
Yangiyo'l	8,7	3,1	8,7	3,1		
Toshkent	13,2	4,7	13,2	4,7		



**Asosiy tarkib, foizda**




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Toshkent viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-avgustoylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **5538,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **17,0 %** ga kamaydi. Shu jumladan, kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **3331,8** mlrd. so'mni (**12,8 %** ga kamayish) tashkil etdi. Ushbu sektor jami viloyat ulgurji savdo tovar aylanmasida **60,2 %** ulushni tashkil etdi.

**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**




Yirik korxonalar

Kichik biznes

**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**




**Eng yuqori ulushga ega hududlar**






Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Nurafshon (6,9 m.) hamda Ohangaron (2,5 m.) va Bo'stonliq tumanlarida (2,1 m.) kuzatildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>5538,5</b>	<b>83,0</b>	<b>2206,7</b>	<b>77,3</b>	<b>3 331,8</b>	<b>87,2</b>
<i>Shaharlar:</i>						
Nurafshon	291,7	6,9 m.	254,3	3443,6 m.	37,4	88,0
Olmalik	146,9	89,3	23,8	101,6	123,1	87,2
Angren	55,8	87,3	0,0	16,4	55,8	87,4
Bekobod	78,1	87,3	0,1	64,7	78,0	87,4
Ohangaron	79,2	142,0	30,5		48,6	87,2
Chirchiq	159,3	91,9	13,2	2,1 m.	146,2	87,4
Yangiyo'l	207,4	87,0	0,0		207,4	87,2
<i>Tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	6,7	87,0	0,0	149,2	6,7	86,9
Ohangaron	137,6	2,5 m.	90,2	352,3 m.	47,4	87,2
Bekobod	39	51,4	15,0	31,1	24,0	86,8
Bo'stonliq	194,5	2,1 m.	115,3	214 p.	79,3	87,2
Bo'ka	36,2	86,9	0,0	62,6	36,2	86,9
Quy Chirchiq	34,1	104,1	5,7	39,2 m.	28,4	87,1
Zangiota	783,8	85,9	6,1	28,0	777,7	87,3
Yuqori Chirchiq	125,6	81,2	1,2	9,9	124,4	87,2
Qibray	1419,4	107,3	1092,2	115,2	327,2	87,3
Parkent	117,9	86,8	0,0	0,9	117,9	87,4
Piskent	41,4	87,4	0,2	4 p.	41,2	87,1
O'rta Chirchiq	354,3	24,6	318,8	22,8	35,4	86,9
Chinoz	290,7	65,5	227,7	61,3	63,0	86,9
Yangiyo'l	206,3	88,5	4,3	28,1 m.	202,1	86,7
Toshkent	732,8	86,1	8,1	40,9	724,7	87,2

**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES  
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR  
AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra 4920,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **15,7%** ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **60,2 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich tuman va shaharlar kesimida taqqoslanganda, Angren (100 %), Ohangaron (100 %) va Yangiyo'l (100 %) shaharlarida hamda Bo'ka tumani (99,9 %) va Parkent tumanida (100 %) yuqori bo'ldi.



**Tashqi iqtisodiy  
faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
Tel.:(71) 202-86-59